

Boqijon To'xliyev*(Toshkent, O'zbekiston)*

bokijontukhliev@inbox.ru

“Qutadg‘u bilig”da turkiy folklor motivlari

Abstrakt

“Qutadg‘u bilig” turkiy yozma adabiyotning eng yirik qadimiy obidalaridandir. Ammo uning ahamiyatini faqat turkiy xalqlar manfaati yo‘lidagina belgilash bir yoqlamalik bo‘ladi. Bu xildagi asarlar butun insoniyatga tegishli bo‘ladi. Shuning uchun ham ularning ahamiyati umumjahon miqyosiga molikdir.

XI asrdagi turkiy adabiyot, jumladan, “Qutadg‘u bilig” ham nihoyatda murakkab tarixiy, iqtisodiy-siyosiy va madaniy sharoitda yuzaga keldi. Bu davrda turkiy xalqlarning qadim ishonch-e‘tiqodlari ham, qadimgi turkiy bitiglarga xos bo‘lgan an‘analar ham, shuningdek, fors-tojik adabiyotlari ta‘sirida kirib kelgan islom madaniyati ham o‘zaro kesishib ketgan, buning ustiga folklor an‘analarining nufuzi ham kuchli edi. Shu bois asarda bir necha xil an‘analarning goh kuchli, goh sezilar-sezilmas izlari ko‘zga tashlanadi. “Qutadg‘u bilig”da ko‘p asrlik an‘analarga ega bo‘lgan yirik bir adabiyotning, folklorning eng muhim xislatlari yaxlit holda namoyon bo‘ladi. Tabiiyki, bunday holning tasodif bo‘lishi mumkin emas. Zero, Yusuf Xos Hojibdan oldin yashab ijod etgan ko‘plab adiblar, ular yaratgan talay asarlar yuzaga kelgan bo‘lishi kerak. Xuddi shu nuqtalarning muhimligi bizni ushbu ishga undadi.

Kalit so‘zlar: *Qutadg‘u bilig, Yusuf Xos Hojib, folklor, motiv, an‘ana, turkiy adabiyot, ta‘sir.*

Muallif haqida: *Boqijon To'xliyev* – filologiya fanlari doktori, profeesor, Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti.

Tavsiya etiladigan havola: To'xliyev, Boqijon. 2020. “Qutadg‘u bilig”da turkiy folklor motivlari”. *Oltin bitiglar* 3: 3—26.

Kirish

“Qutadg‘u bilig”dan oldingi davrlarda yaratilgan turli janrlardagi ulkan adabiyotning alohida qismlari ham yetib kelganki, bularning bir qismi yozma adabiyotning o‘zi bilan aloqador bo‘lsa, yana bir qismi ko‘proq og‘zaki ijod namunalari bilan bog‘liq [Бомбачи 1986, 191-293; Габен 1986, 159-190; 294-344]. Har holda V-VIII asrlarga oid bo‘lgan O‘rxun-Yenisey bitiktoshlari, “Irq bitigi”, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”iga kirgan ham o‘z yaratilish davriga ko‘ra faqat XI asrga emas, balki undan bir necha asrlar qadimga borib tutashadigan badiiy parchalar shu ulkan an‘ana mahsuli ekanligi aniq. Bularning yoniga juda katta mavqe tutgan tarjima adabiyotini ham kiritmoq kerak. Ayniqsa, “Xuastanift”, “Oltin yoruq”, “Abitaki”, “Maytri Smit” kabi asarlarini eslash o‘rinli bo‘ladi.

Yozma adabiyot va folklor munosabatlarini o‘rganish hozirgi adabiyotshunoslik fani oldidagi jiddiy problemalardan biridir. Ma‘lum bir xalq adabiyotining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini muayyanlashtirishda uning folklorga munosabati masalasini chetlab o‘tish mazkur masalaning to‘laqonlik va obyektiv hal etilishiga monelik qiladi. Adabiyot tarixining qadim davrlari haqida gap borgudek bo‘lsa, bu masalaning tarixiy ham umumfilologik ahamiyati yanada ravshanlashadi. Zero, “so‘z san‘atining boshlanishi folklordadir” [Горький 1960, 280].

B.M.Jirmunskiy va X.T.Zarifovlar shunday yozishgan edi: “Xalq og‘zaki ijodi qatorida yozma adabiyotning oliy klassik namunalarini yaratgan madaniy xalqlarning barchasida folklor va yozma adabiyotning o‘zaro ta’siri – odatdagi hodisa. Bu o‘zaro ta’sir har ikki yo‘nalishda ham namoyon bo‘ladi: klassik yozma adabiyot o‘zining haqiqiy ko‘tarishlarida xalq san‘atidan chegaralanmaydi hamda xalq og‘zaki an‘analaridan ilhomlanadi; o‘z navbatida xalq adabiyoti taraqqiyotining muayyan bosqichida klassik adabiyot ta’sirlari bilan boyiydi” [Жирмунский ва Зарифов 1947, 280].

X-XI asrlar turkiy xalqlarning etnik tafovutlanishi (differensiatsiyasi) bilan xarakterlanadi. Shunga ko‘ra ulardagi adabiyot va folklor munosabati konkret bir xalqqa (o‘zbek, qozoq, turkman, ozarbayjon...) xos bo‘lgan badiiyat durdonalarining o‘zinigina muqoyasasi bilan chegaralanish mumkinligini inkor etmaydi. Ammo “Qutadg‘u bilig” davrida etnik tafovutlanish kuchayayotgan bo‘lsa-da, turkiy xalqlar oilasiga mansub alohida xalqlarga xos etnik, til, dunyoqarash va boshqa umumiyliklar ajralib

ulgurmagan edi. Shuning uchun ham “Qutadg‘u bilig”ni folklor bilan qiyoslaganda uni O‘rta Osiyo va Sharqiy Turkiston xalqlari folklori bilangina emas, balki boshqa regionlardagi turkiy xalqlar folklori bilan ham chog‘ishtirish kutilgan samarani berishi mumkin.

Jahon adabiyoti tarixida shunday qonuniyat mavjud. Adabiyot va san‘at asarlarining yaratilish davri qanchalik qadim bo‘lsa, ularning xalq og‘zaki ijodi va etnografiyasi bilan aloqadorligi ham shunchalik mustahkam bo‘ladi. Buni gruzin adabiyotidagi “Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon», fors-tojik adabiyotidagi “Shohnoma”, rus adabiyotidagi “Igor jangnomasi”, o‘zbek adabiyotidagi “Xamsa” va boshqa ko‘plab asarlar misolida ko‘rishimiz mumkin.

Asosiy qism

Turkiy adabiyotda xalq og‘zaki ijodining so‘nmas buloqlaridan bahramand bo‘lgan ana shunday asar Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostonidir. O‘z zamonasining deyarli barcha bilim sohalaridan xabardor bo‘lgan Yusuf Xos Hojib ijodi o‘zi zamondosh bo‘lgan adabiy asarlardagi eng yaxshi an‘analarni o‘zlashtirgani holda o‘zigacha bo‘lgan davrdagi poetik uslubiga ko‘ra mukammal, benihoyat boy va xilma xil og‘zaki ijodning teran tomirlari bilan juda mustahkam bog‘lanib ketgan.

Folklor va yozma adabiyot munosabatlari nihoyatda xilma xil ko‘rinishlarda amalga oshishi mumkin. Bu xil aloqalar janrlar, sujet va mavzular, obrazlar sistemasi, poetik tasvir usullari, she‘r tuzilishi va boshqa aspektlarda bo‘lishi mumkin. Ammo shunda ham ularni bir-biridan ajratgan holda tasavvur etib bo‘lmaydi.

Adabiyot va folklor mavzusini o‘rgangan U.B.Dalgat ikki sistema orasidagi bog‘lanishlarni “ongli” va “ongsiz” munosabat tarzida ikkiga bo‘ladi [Далгат 1981, 15]. Muallif “rivojlangan adabiyotda folklor vositalari va obrazlarga murojaat ongli ravishda qo‘llanadigan usul” deb baholaydi va “ularning folklorizmlar deb atalishi qabul qilingan”ligini ko‘rsatadi [Далгат 1981, 15].

Folklorizmlarning tiplariga kelganda esa ularning u yoki bu so‘z san‘atkorlarining ijodiy manerasi, metod va yo‘nalishi, uning xususiy individual uslubiga, shuningdek, u yoki bu asarning bayon uslubi, poetik tiliga va yana ko‘plab boshqa sabablarga bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. O‘zbek folklorshunosligida bu masala dastlab B.Sarimsoqov tomonidan boshlab berildi. Olim adabiyot va folklor munosabatlari haqida to‘xtalib, ularni ikki guruhga ajratadi: “Birinchi tip – adabiyot va folklorning genetik aloqadorligidan iborat. “Genetik aloqalar” mafhumi ostida biz adabiyotning paydo

bo'lishi, inson badiiy tafakkurining tarixiy taraqqiyoti jarayonida undagi janrlarning shakllanishi hamda nutq shakllarining rivojini tushunamiz. "Ikkinchi tip – "ikkilamchi shakllar" (K.V.Chistov), ya'ni adabiyotning folklor bilan folklorizmlar vositasida bog'lanishidir" [Чистов 2005, 271].

Ushbu ishida olim folklorizmlarni oddiy va murakkab turlarga ajratar ekan, oddiy tipni: maqol va matallar, qanotli so'zlar hamda individual ijodkor tomonidan qo'llangan ifodalar tashkil etishini ham ko'rsatib o'tadi, hamda murakkab folklorizmlarni analitik, sintezlashgan va stilizatsiyalashgan turlarga bo'ladi [Чистов 2005, 271].

"Qutadg'u bilig"dagi folklorizmlarni ham yuqoridagi tasnif asosida o'rganish samaralidir. Ammo folklorizmlarning har biri alohida asarda o'ziga xos xususiyat kasb etishini ham nazardan qochirmaslik lozim.

"Qutadg'u bilig"ning sujeti hamda undagi motivlarning rivojlanish tarixi, ularning yuzaga kelishidagi ijtimoiy-badiiy sharoit va paydo bo'lish vaqti, bu sujet va motivlarning ijtimoiy-estetik ildizlari, hech shubhasiz, bizda katta qiziqish uyg'otadi. Ammo bularning hammasini ochib berish haddan tashqari qiyin va mas'uliyatli vazifadir. Buning ustiga asar yaratilgan payt bilan bizning zamonamiz orasidagi juda katta xronologik ayirma va ayrim masalalar mohiyatini yoritishda imkonsiz qoldiradi. Shunga qaramasdan, dadil aytish mumkinki, qiyosiy-tipologik kuzatishlar asosida yuzaga chiqadigan ko'plab xulosalar, asarda aks etgan tarixiy sharoitning o'ziga xos ifodasi, dunyoni idrok etish, asarga xos bo'lgan badiiy qurilish XI asrdagi mustaqil va o'ziga xos turkiy yozma adabiyotning yuksak namunalari mavjudligidan dalolat berib turadi.

Biz adabiyotning so'z san'ati ekanligini yaxshi bilamiz. Ammo bu mutlaqo abstrakt, haddan tashqari umumlashgan tushuncha emas. Adabiyot – milliy an'analarga tayanadigan so'z san'ati. Undagi ruhiyat, e'tiqod, urf-odatlar, tasavvur va ruhiy qarashlarning o'ziga xos ifodasi, milliy xususiyatlarga yo'g'rilganligi bilan ajralib turadi. Bu narsa hatto adabiy aloqalarning har qanday darajasida ham to'la saqlanadi. Albatta, gap yuksak darajadagi adabiyot haqida bormoqda.

Ana shu ildiz sistemalarini tasavvur etishda og'zaki ijodga xos bo'lgan ayrim motivlarning asar badiiyati bilan munosabatlarini belgilash alohida o'rin tutadi. V.V.Veselovskiy asar sujetini ayrim motivlar kompleksidan iborat deb tushungan va tushuntirgan edi.

"Parallelizm asosiga qurilgan lirik uslub formulasi o'zining u yoki bu qismini rivojlantirib, kengaytirgani singari motiv sujetiga o'sib o'tadi" [Веселовский 1969, 495].

B.Y.Propp motiv haqida to'xtab uni shunday izohlaydi: "Qahramonning sifati ("ikki aqlli va bir ahmoq") va soni ("uch aka-uka"), qahramonlar xatti-harakati ("o'limidan keyin qabrini poylash haqida ota vasiyati va uning ahmoq o'g'il tomonidan bajarilishi»), predmetlar ("tovuq, oyoqli uycha"), talismanlar va boshqalar motiv hisoblanadi" [Пропп 1969, 20].

Yusuf Xos Hojib asaridagi folklor motivlari va umuman og'zaki ijod an'analarini belgilash birmuncha murakkabliklarga ega. Zero, folklor asarlarining barchasi, ularning umumturkiy yoki alohida bir turkiy qavmga mansubligidan qat'iy nazar, yozib olingan vaqtiga ko'ra nisbatan keyingi davrlarga tegishlidir. Shunga qaramay, xalq og'zaki ijodiga tegishli bo'lgan asarlar tarkibi va tuzilishi haqidagi tasavvurlar u yoki bu motivlarning turli shakl ko'rinishlari taraqqiyotini belgilash imkonini beradi. Ikkinchidan, "motivlarning nisbatan qadimgi variantlari keyin yozib olingan (tekstlar) asosida paleontologik o'rganish yo'li bilan ham rekonstruksiya qilinadi. "Paleontologik tahlilning vazifasi – berilgan dunyoqarash yoki sujet qurilishidagi oldingi davrlardan o'zlashtirilgan elementlarni, sujetning shakllanish jarayonini izohlash maqsadida hamda o'sha davrlardagi yozma manbalar bo'lganligi tufayli bevosita adabiy dalolatlariga ega bo'lmaganimiz tafakkur va qarashlarning rivojlanish bosqichlarini rekonstruksiya qilishdan iboratdir" [Криничная 1977, 22].

"Qutadg'u bilig" dagi sujet tuzilishi va kompozitsion elementlar haqida gapirishdan oldin I.V.Stebelevaning qadimgi turkiy bitig toshlaridagi hikoyalash usullariga doir ayrim kuzatishlarni eslash o'rinli bo'ladi. U yozadi: "Har bir hikoya siklini yuzaga keltiruvchi uch hikoyalash unsurlarini bayondagi qulaylik uchun shunday aytish mumkin: 1) boshlanma (zachin); 2) sikl mazmunini rivojlantirish; 3) xotima (konsovka). Bunda shu narsaga ham e'tibor bermoq kerakki, har bir hikoya sikli muayyan mavzularga bag'ishlangan va ularni aniqlash o'rxun matnlari kompozitsion strukturasi barcha unsurlarini sinchiklab o'rganish natijasidagina mumkin bo'ladi" [Стеблева 1976, 29].

Shu o'rinda B.Y.Proppning bir fikrini ham eslash o'rinli, zero, rus xalqi ertaklari asosida chiqarilgan bu xulosalar universal xarakter kasb etadi. U yozadi: |Ertak odatda ayrim boshlang'ich vaziyat bilan boshlanadi. Oila a'zolari sanaladi yoki bo'lg'usi qahramon (masalan,

soldat) uning nomini keltirish yoki mavqeini eslash bilan kiritiladi. Garchi bu vaziyat funksiya hisoblanmasada, shunga qaramay, u muhim morfologik element sanaladi» [Пронн 1969, 29].

Turkiy xalqlardagi sehrli ertaklar ham ayni shu xususiyatlarga ega. Hatto, dostonlar kompozitsiyasida ham shu hol keng takrorlanadi. Yusuf Xos Hojib asarida ham ayni boshlanma mavjud. "Qutadg'u bilig"ning dastlabki qahramoni ham xuddi folklordagidek "namoyon" bo'ladi: u asarga "beg" lavozimida, Kuntug'di nomi bilan "kirib keladi". Ikkinchi qahramonning kiritilishida ham shu hol takrorlanadi ("Bir Aytoldi atlig' er erdi yetig"). Har ikki qahramonni tinglovchi (o'quvchi)ga tanishtirishda ertak boshlanmasi (zachinlari) kabi "Bir bor edi, bir yo'q edi..." yetishmaydi xolos. Oyto'ldining favqulodda ("g'ayritabiiy") xususiyatlar egasi sifatida talqin qilinishi ham epik an'analar fonida tasavvur etiladi:

qamuğ türlüğ erdem tükel öğrenip
yorır erdi erdem eligke alıp [465].

Barcha xil san'at-hunarni tugal o'rganib,
San'at-hunarlarini qo'liga olib (ya'ni egallab) yurar edi.

Ma'lumki, ertak qahramonlarining harakatga kelishida "oila a'zolaridan biriga nimadir yetishmaydi, u nimagadir ega bo'lishni istaydi" [Пронн 1969, 37].

Bu narsa kelin (yoki do'st, umuman inson), sehrli vositalar, masalan olma, suv, ot, qilich yoki ularning ratsional shakllari pul, tirikchilik vositalari va boshqalar bo'lishi mumkin [Пронн 1969, 37].

Dostonning Kuntug'di elig haqidagi dastlabki so'zi turkiy xalqlar eposidagi zachinlar funksiyasiga to'la muvofiqdir:

beg erdi ajunda бүгү bilge baş
bu beglik özele uzun boldı yaş
bu kün toğdı erdi atı belgölüg
ajunda çavıkmış kutı belgölüg [405, 406].

Jahonga bilag'on, dono sarkor bek bo'lgan edi,
Bu(ning) beklig(i) davrida olam yasharib ketdi.
Bu (bek) Kuntug'di edi, oti taniqli edi,
Olamda dong taratgan va baxtu davlati barqaror edi.

Garchi shundan keyin Kuntug'di eng yuqori nuqtalardagi maqto'vlar bilan sifatlangan-da, u asarda eng kamharakat, faoliyati

nisbatan chegaralangan qahramondir. Aslida shu holatning o‘zida ham epik an‘analar ta‘sirini ilg‘ash mumkin, chunki “xalq birligi g‘oyasini o‘zida singdirgan epik hukmdorning o‘zi, odatda, ayrim epik sujetlar rivojida faol o‘rin tutmaydi” [Бектемир ботир 1986, 33]. B.Y.Propp aytgan “nimagadir intilish istagi”ga kelganda shuni aytish lozimki, u o‘zbek xalq ertaklari uchun ham xosdir.

Faqat bu o‘rinda shuni ta‘kidlash lozimki, hukmdorning farzandi yo‘q. Farzandsizlik motivi ham eposlar uchun xosligini alohida ta‘kidlash ehtiyoji bo‘lmasa kerak. Nisbatan keyinroq, Oyto‘ldi vafotidan so‘ng, uning o‘g‘li O‘gdulmishga yo‘naltirgan nutqidagina Kuntug‘dining O‘gdulmishni o‘g‘il qilib olganligini ilg‘ash mumkin:

atañ öldi erse ata men saña
atalık kılayın oğul bol maña [1552].

Otang o‘lgan bo‘lsa, men senga otaman,
(Men) otalik qilayin, (sen) menga o‘g‘il bo‘l.

Biroq uni o‘g‘illikka qabul qilish sabablari bayonida biz folklor an‘analaridan ko‘ra ko‘proq yozma adabiyot prinsiplarini his qilamiz.

O‘gdulmish bilan bog‘liq holda dastlab ko‘zga tashlanadigan narsa uning yolg‘iz o‘g‘il hamda favqulodda (xalq eposlaridagi “g‘ayri tabiiy” xislatlarga analog sifatida) xususiyatlarga egaligidir. Dostonning keyingi qismlarida bu favquloddalikka yana e‘tibor qaratilgan. U O‘gdulmish timsolidagi mukammallikdan hayrat tarzida ko‘rinadi:

atañ öldi qaldıñ sen oğlan kiçig
kiçigke beđüktin bolur yol keçig
atañ öğretümedi erdem bilig
tegümedi mindin yime ök elig
neteg met yumıttı bu erdem saña
ayu birgil emdi munı sen maña [1793 – 1795].

Otang o‘lib ketdi, sen (esa) go‘dak qolding,
Kichiklarga ulug‘lardan yo‘l-yo‘riq bo‘ladi.
Otang senga hunar va ilm o‘rgata olmadi,
Senga undan aql va ilm o‘rganish nasib bo‘lmadi.
(Shunday ekan) senda bu san‘at-hunarlar qaerdan jam

bo'ldi?

Bular haq da sen menga gapirib ber.

Oyto'ldining mana shu "kichkinagina" o'g'li g'ayriodatiy tarzda hamma narsaga o'ta kuchli qobiliyat ko'rsatadi. "Barcha xalqlarning epik asarlari uchun qahramonning dastlabki yoshligida, ko'pincha bolalik chog'ida, ko'p hollarda kattalar ham uddasidan chiqmaydigan ishlarda qahramonlik ko'rsatishi xarakterlidir [Жирмунский 1974, 37].

Folklor asarlaridagi asosiy kompozitsion xalqalardan biri kurash bilan belgilanadi. B.Y.Propp qahramon va uning ziddi (antagonist) orasida bevosita kurash bir necha shakllarda namoyon bo'lishini ko'rsatadi:

1. Ular ochiq maydonda kurashadi...

2. Ular musobaqalashadi... [Пропп 1969, 49-50]

Bu jihatdan O'gdulmish va O'zg'urmish munosabatlari xarakterlidir. Ertaklardan farqli ravishda bu kurash og'izda, ya'ni so'z bilan bo'ladi. Uning mohiyatini esa O'zg'urmishning elig saroyiga – shaharga taklif etish tashkil etadi.

Ertaklarda antagonist har doim yengiladi. Qahramon g'olib bo'ladi. O'gdulmish ham "yengadi", O'zg'urmish "yengiladi". U shaharga borishga rozilik beradi. Shunday qilib elig Kuntug'diga yetishmaydigan narsa ham o'z o'rniga tushadi. Bu motivni B.Y.Propp "dastlabki kulfat yoxud yetishmovchilikning tugatilishi" deb baholagan edi [Propp 1969, 51].

Ertaklardagi "qiyin vazifani bajarish" "Qutadg'u bilig"da kurash bilan qo'shilib ketgan. Kurash esa munozara qilmoq shaklida namoyon bo'ladi.

"oḡgʻurmiş oḡdʻulmiş birle mʻunazara ḡilmişin ayur"
yanut birdi oḡgʻurmiş aydı sözüñ
eşittim sözüمنى eşitgil özüñ
yaḡınlıḡ ulamiş üçün bir bayat
muyan birsü miñ miñ tümen eḡgü at [3318, 3319].

Javob berdi O'zg'urmish, aytdi; So'zingni
Eshitdim, sen (mening) suzimni (ham) eshitgin.
Yaqinlik ulaganing uchun yagona xudo
Ming-ming tuman baraka, ezgu nom ato qilsin.

"oḡdʻulmiş oḡgʻurmiş birle ikinç ḡata mʻunazara^ ḡilmişin ayur"

boblari va O’gdulmishning uchinchi marta O’zg’urmish huzuriga borishi ana shu munozaralarga bag’ishlangan.

Folklor asarlarida (jumladan ertaklarda) topshiriq berish va bu topshiriqning bajarilishi alohida ahamiyatga ega va u ko’pincha voqea rivoji va qahramon taqdirida muhim o’rin tutadi. Topshiriq (sinov)ning o’zi esa g’oyat xilma-xil bo’lishi mumkin: yemak-ichmak bilan sinash; olov bilan sinash; topishmoq aytish va boshqalar. Ularni bajarish topshiriq (sinov)ning bajarilishini ta’minlaydi. Yusuf Xos Hojib asarida bunday motiv ikki ko’rinishda namoyon bo’ladi.

1. Kuntug’di va Oyto’ldilarning jumboqli harakatlarida;
2. O’gdulmishning O’zg’urmishni shaharga undashi va uni ko’ndirib olib kelishida.

Harakatdagi qahramonlar faoliyati, yanada aniqrog’i, ularning vazifa (funktsiya)si nuqtai nazaridan ham “Qutadg’u bilig”da folklor izlarini ko’rish mumkin. Faqat bu funktsiyalar asarda ancha murakkab shakllarda yuz beradi.

Umuman olganda, “Qutadg’u bilig”ning nihoyatda sodda sujet tuzilishi va o’ziga xos kompozitsiyasida turkiy folklorning qadim an’analari juda ustivor holda namoyon bo’ladi. Mulohazalarimizni asar kompozitsiya va sujetida alohida o’rin tutadigan ayrim motivlar haqida batafsilroq to’xtab, shular asosida bayon etishga harakat qilamiz. Bular:

1. Sinov motivi.
2. Tong-sahar motivi.
3. Uchlantirish motivi.

1. Sinov motivi.

Folklor asarlaridagi asosiy kompozitsion elementlardan biri qahramonning muayyan sinovdan o’tishi bilan aloqador. Masalan, “Bektemir to’g’ri maydonga bordi-yu, bor kuchini to’plab turib qirq quloqli oltin soqqani dast ko’tarib osmonga irg’itib yubordi” (“Bektemir botir”), “Lo’nda polvon ketayotsa, ro’parasida ikki qo’liga tegirmon toshi kiygan bir kishi katta tog’ni minib kela beribdi. Lo’nda polvon: - Qani ikkovimiz kurashib ko’raylikchi? Agar meni yiqitsang, Lo’nda polvonni ham yiqitasan, - debdi. Lo’nda polvon tog’ mingan polvonni chunon ko’tarib uribdiki, bir qarich yerga kirib ketibdi” [Razzakov va boshqalar 1980, 139].

Kuntug’dining Oyto’ldini va aksincha Oyto’ldining Kuntug’dini sinagan lavhalari aslida folklordagi ushbu xislatlarning analoglari sifatida baholanmog’i kerak. Ammo yozma adabiyotdagi ushbu motivdan folklordagi barcha detal va ma’nolarni talab qilish

o'rinli bo'lmas, shunga ko'ra ham ertaklardagi qahramon sinovi aniq detallar orqali amalga oshirilsa, "Qutadg'u bilig"da bu narsa ikki shaklda namoyon bo'ladi: bir bayt doirasidagi so'z bilan eslab o'tiladi xolos:

ķamuķ tūrlūķ iķke sinadı ilig
tilek teg tūkel buldı tapnur erig [619].

Elig (Oyto'ldini) turli ishda sinadi,
Xizmati(ni) qiluvchi kishini tilagidagidek topdi.
Yana qarang:
bir anķa yorıdı sinadı ilig
ķamuķdın tūkel buldı bulmıķ erig [764].

Oyto'ldi bir muddat shu tariķa yurdi, elig uni sinadi,
O'zi yetishgan kishisini barchadan yetuk topdi.

Ayni tavsif O'gdulmish uchun ham beriladi:
sinadı ķōr ilig bu ōgdūlmıķıg
ķōnilik ōze buldı barķa iķig [1716].

Elig O'gdulmishni sinadi, ko'r,
Barcha ishlarining to'g'ri ekanligini kuzatdi.

O'rni kelganda aytish lozimki, sinashning donishmandlik, ma'naviy kamolot bilan aloqador jihatlari "Qutadg'u bilig"da ko'proq aks etgan;

negū tir eķitgil ōtūken begi
sınap sōzlemıķ sōzni yetrūp ōgi [1962].

O'tukan begi nima(lar) deydi, eshitgin,
(U) so'zni sinab mulohaza bilan so'zlabdi:

negū tir eķitgil sınamıķ ķıķı
sınap eķģū isizni bilmiķ ķıķı [2214].

Sinagan kishi nima deydi, eshitgin,
Sinab yaxshi-yomonni bilgan kishi.

Aslida Oyto'ldining davlat timsoli ekanligini ko'rsatish va Kuntug'dining adolat ramzlarini tushuntirish epizodlari ham ana

shu sinov motivlaridan tashkil topgan.

ilig bir kün oldrup özi yalñuzun
oқıp kirdi ay toldı seǵnür özün [620].

Elig bir kuni o'zi yolg'izlikda o'ltirib,
Oyto'ldini chaqirtirib kirdi, u hamisha sevinardi.

meniñ kılķımı kör yime bir yañın
özüm tegşürölmez yarukta öñin [835].

Mening qiliqlarimni ko'r, sifatim bir, o'zgarmasdir,
Yorug'likdan boshqa jihatim yo'q, o'zim o'zgarmayman.

Dastlabki sahna Oyto'ldi bilan aloqador. Uning qisqacha bayonini shunday keltirish mumkin: Elig bir kuni Oyto'ldini taklif etadi. Oyto'ldi kelib, o'zi olib kelgan bir to'p (konop)ning ustiga o'tiradi. U elig savollariga javob berarkan, elig so'zdan to'xtashi bilan ko'zlarini yumib oladi. Kuntug'di kulib qaraganida Oyto'ldi yuzini teskari o'giradi. Elig qattiq g'azablanadi. Oyto'ldini o'ziga yaqin tutganidan pushaymon bo'ladi: Ana shundan keyingina Oyto'ldi o'zining jumboqli xatti-harakatlarini izohlab beradi:

munu men me emdi saña keldüküm
meniñ kılķım erdi bu körkittüküm
orun birdiñ aşnu men oldurmadım
orun yoқ maña sen munı uқ tidim
topıķ yérde urdum bu söz berkitü
özüm yañzagını saña körkitü
neteg kim orunsuz topıķ yuǵlunur
anı teg me devlet özüm yolunur
seǵe baқtıñ erse közüm yümdüküm
saña körkitür men negü erdüküm
bu kün men me devlet қарағu sanı
maña kim ilinse tutar men anı
yana sözlediñ sen yime sözledim
seǵe baқtıñ erse yüzüm kizledim
özüm körkitür öz kılınçın saña
ayur kılķım irsel inanma maña [659 – 666].

Mana, endi meni(mening) sening huzuringga
kelishim(ning sababi),

Mening senga namoyish qilganlarim mening odatim edi.
Sen o'zing berding, avvaliga men o'ltirmadim.
Chunki menga o'rin yo'q, sen buni tushunib ol, demoqchi
bo'ldim.
Erga to'p (koptok) qo'yishimda shu mazmunning siri bor
ediki,
O'zimning nimaga o'xshashligimni senga ko'rsatmoqchi
edim.
To'p (koptok) (bir barqaror) o'rinsiz dumalab yurgani
kabi,
Men [ya'ni davlat] ham uning kabi (o'rinsiz) kezaman.
Iltifot bilan boqqaningda ko'zimni yumganim (sababi),
Senga o'zimning qandayligimni ko'rsatmoqchi edim.
Bu kunlarda men [ya'ni davlat] ham bir ko'r kishi
kabiman,
Kim menga ilashib qolsa, unga qattiq yopishib olaman.
Sen yana so'zlading, men ham so'zladi
Sen iltifot bilan boqqach, men yuzimni yashirdim.
(Bu bilan) men senga o'z qiliqlarimni ko'rsatdim,
Mening barcha qilmishlarim jafo, menga ishonma, dedim.

Bunday jumboqli holatlar turkiy epik asarlarning ko'pida uchraydi.

Folklor janrlaridagi sinov shakllari g'oyat xilma-xil bo'lishi mumkin. Ularni dastlab:

- a) qahramonning jismoniy qudratini;
- b) uning ma'naviy kamolotini sinash tarzida ajratish mumkin.

“Qudatg'u bilig”dagi sinov motivi keyingi turkumga mansub va bu asarning janr xususiyatlariga ham, muallifning g'oyaviy-badiiy niyatlariga ham uyg'un va mosdir. Sinash motivi “Qudatg'u bilig” tarkibidagi ikki xil ko'rinishga ega:

1. Bevosita an'analarga to'liq bo'ysinuvchi shakl: bu turkumga Kuntug'di va Oyto'ldining o'zlariga xos bo'lgan real va ramziy ma'nolarni anglatish epizodlari mansub;

2. An'anaga tayanuvchi, biroq sinovning tasvirini emas, faqat tavsifini berish bilangina chegaralanadigan shakl: bu sinovga Oyto'ldi va O'gdulmishning sinalgani haqidagi eslatmalar mansubdir. Bu sinovlarning elig tomonidan amalga oshirilganini ham qayd etmoq kerak.

Sinash motivida folklor va yozma adabiyot orasidagi bir qator o'ziga xosliklarni ham qayd etish mumkin.

Folklor asarlardagi sinov topshiriq beruvchi va uni bajaruvchi orasida bo‘ladi, hamda topshiriq beruvchi va uning ijrochisi boshqa-boshqa kishilardir. “Qutadg‘u bilig” da esa, aksincha, topshiriq beruvchi (Kuntug‘di yoki Oyto‘ldi)ning o‘zi ayni paytda uning ijrochisi hamdir.

“Qutadg‘u bilig”dagi ushbu motiv to‘laligicha ramziy obrazlarga tayanadi. Shu faktlarning o‘ziyoq, bu obrazlar va ular mansub bo‘lgan motivning juda qadimda shakllangan an‘ana zaminida yuzaga kelganini ko‘rsatib turadi.

2. Tong-sahar motivi.

Agar turkiy folklorlar ko‘zdan kechiriladigan bo‘lsa, uning barcha janrlarida sahar – tongning otishi bilan bog‘liq motivlarning tez-tez takrorlanib turishini kuzatish mumkin: o‘zbek xalq qo‘shiqlarida, ushbu motiv allalar uchun ham xos, xatto, xalq maqollarida ham tong, sahar, ertalab motivlari asosida yuzaga kelganlari kam emas, bu narsa o‘zbek xalq ertaklari uchun ham xosdir; o‘zbek xalq dostonlarida ham bu motiv faol tarzda qo‘llanadi ham tong otgan payt bilan aloqalantiriladi [Фарҳод ва Ширин, 215].

“Alpomish cho‘ponlarning qushxonasida uxlab yotdi. Kechasi fayzi sahar vaqtiga yetdi, sahar vaqti cho‘ponlarning qushxonasida yotib bir tush ko‘rdi. Izlab borayotgan Barchin yori ham baxmal o‘tovda yotib, subhi sodiq tuqqan vaqtda bu ham bir tush ko‘rdi” [Алпомиш 1979, 92-93].

“Kuntug‘mish”da Kuntug‘mish “Xolbeka bilan nard o‘ynaydi, manaman degan talabgorlarni yenggan mag‘rur malika bilan dona surishib, sahar chog‘i mot qoladi (ta‘kid bizniki – B.T.) va shartni bajargani uchun yori bilan qovushadi” [Ходи Зариф 1971, 46].

Agar diqqat bilan kuzatilsa, ertalab (tongda, saharda) bo‘lgan voqealar muayyan bir voqea – hodisalarning boshlanishi bilan chambarchas bog‘liq holda yuz beradi.

Xalq qo‘shiqlarida sahar, bahor motivlarining parallel qo‘llanishi ham kuzatiladi.

Sahar motiviga zid holdagi obrazning mavjud bo‘lishini taxmin qilish mumkin. Chunki, xalq estetikasi, ko‘pincha, hodisalarni binar oppozitsiya orqali tasvirlanishni ma‘qul ko‘radi. Shu jihatdan qaraladigan bo‘lsa, folklorlarda sahar, tong otish, ertalab ma‘nolariga zid so‘zlar va ular bilan bog‘liq obrazlarning bo‘lishi mutlaqo tabiiy bo‘ladi.

“Sahar” motivi butun turkiy xalqlar folklori uchun ham xos. “Devonu lug‘otit turk”da:

Tang ata jortalim,
Buzruj qanin jrtalim,
Jasmil begin ortalim,
Emdi jigit jyshlsun [Koshg'ariy 1963, 367].

Tong otishi bilan yo'lga tushaylik,
Buzrajning qonini (xunini) talab qilaylik,
Uning uchun o'ch olaylik, u yaboqulardan edi, o'ldirildi.
Basmillar begini yondiraylik.
Endi yigitlarning to'planishi zarur.

Shu mezon bilan "Qudatg'u bilig" matniga yondoshiladigan bo'lsa, xalqona an'analar izi ochiq ko'rinishga ishonch hosil qilish mumkin. Jumladan, O'gdulmish O'zg'urmish huzuriga birinchi gal "qora zangi", ya'ni tun pardalangan paytda yo'lga chiqadi. Ikkinchi marta yo'lga chiqishi esa "qora tun etagini ko'targan payt"ga to'g'ri keladi. Uchinchi tashrif ham yana erta tong – sahar tasviri bilan aloqador:

sariğ sandvaç ötti ünün sayradı
beliñlep ođundı usı kelmedi
ođuğ yattı ança anı tıñlayu
aıvındı ol ünke turup tañlayu
usı yitti artuğ uzadı tüni
küsüş boldı arzun yaruğu küni
qalıq yırttı keđmiş qara köñlekin
açıldı yaruğ yüz kötürdi egin
küle baqtı örlep talu kız yüzi
yarudı bu dünya iri hem kuzı
yana qoptı yundı tonandı tükel
namaz kıldı özke yorup eđgü fal
atın tuttı mindi bir oğlan bile
qadaşı tapa bardı seǵnü küle [4963 – 4970].

Sariq bulbul navo qildi, ovoz bilan sayradi,
(O'gdulmish) cho'chib uyg'ondi, uyqusi kelmadi.
Uyqusi qochdi, tuni juda cho'zilib ketdi,
Orzu bilan yoriydigan kuni [ya'ni tong otishi] aziz bo'ldi.
Osmon kiygan qora ko'ylagini yirttdi,
Yorug' yuz [ya'ni quyosh] ochildi, qomatini ko'tardi.
To'kis qiz [ya'ni quyosh] ko'tarilib yuzi kulib boqdi,
Bu dunyoning kungay (va) kun tushmas yerlari yoridi.

Yana turdi, yuvindi, tugal kiyindi,
O'zi uchun ezgu fol yo'rib [ya'ni yaxshi niyatlar qilib]
namoz o'qidi.

Ushbu parcha tahlilidan oldin yana bir nuqtaga e'tibor bermoq lozim. Qadimgi turklarda "Tong nurlari ilohasiga madhiya" ("Гимн богине утренней зари") mavjud bo'lgan [Базен 1986, 325]. Ushbu madhiya matniga zehn solinsa, qadimgi turklarda alohida va mustaqil Tong tangrisi mavjudligi va bu tangrining Kun tangri, Oy tangrilar bilan bir kompleksga mansubligini tasavvur etish qiyin emas.

Ushbu matn mazmuni ayrim qaydlar qilish imkonini beradi:

1. Tong tangrisi Kun, Oy tangrilari bilan birga tasavvur qilinadi va uning solyar miqlar kompleksiga borib taqalishini tasdiqlaydi.

2. Tong tangrisining alohida, ammo an'anaviy epitetlar ("yidlig", "yiparlig") olishi uning ancha qadimiy va mustahkam tasavvurlar kompleksi bilan bog'lanishi hamda unga nisbatan alohida, ilohiy, muqaddas e'tiqodlar yuzaga kelganini ko'rsatadi.

Agar "Madhiya" matnining VII asrga mansubligini hisobga olsak, turkiy xalqlardagi tong (sahar) motivi ular yaratgan badiiy ijod namunalarining ko'p qadim davrlari bilan bog'lanishini tasavvur etish qiyin emas.

Ana shunday mulohazalardan keyin yana "Qutadg'u bilig" dagi ushbu motiv ifodasiga qaytadigan bo'lsak, asarda ushbu motivning nisbatan yaxlit va qadimiy shakllari saqlanganini ko'ramiz.

Yuqorida "Qutadg'u bilig" dan keltirilgan parchada ham tong-sahar motivi yakka, alohida holda kelayotgani yo'q. U tun-qorong'ulik bilan birga bir butunlikni tashkil qilgan holda ko'rinmoqda. Buning ustiga ushbu parchada Quyosh detalining mavjudligi ham e'tiborlidir. O'gdulmishning O'zg'urmish huzuriga dastlabki o'tlanishida Quyoshning botishi:

yaşık yandı yirke yağurdı başın
yaruk dünya meñzi kızardı ışın [3283].

Quyosh qaytdi, boshini yerga yaqinlashtirdi,
Yorur jahon yuzi zulmat pardasi bilan qaraydi.

Tunning cho'kishi:

qođı ıdı kesme yaruk yüz tıdı
sevğ zülfi tıdı yoğaru qođı [3284].
(Osmon) zulfini tushirdi, yorug' yuzini yopdi,

Sevimli zulfi yuqori va quyini qopladi [ya'ni olamni
qorong'ilik qopladi].

Ko'tarilishi:

beliñlep ođundi kōtūrdi başın
kara zengî kılmış yüzini ıñın [3286].

Cho'chib uyg'ondi, boshini ko'tardi,
Qora habash yuzini pardalabdi [ya'ni zulmat ketib tong
yorisha boshlabdi].

Va nihoyat yana Quyoshning chiqishi:
tume torķu ķalkān kōtūrdi uşun
yaruķ yüz küler teg yarudi ajun [3288].

Girdak zarrin qalqon [ya'ni quyosh] qaddini ko'tardi,
Kuluvchi chiroyli yuz kabi (bo'lib) olam yorishdi.

O'gdulmishning keyingi taraddudi oldidan ham ushbu manzara yangi istiora va o'xshatishlar asosida takroran chiziladi.

Yuqorida ko'rganimiz turkiy xalqlar folklorlariga mansub turli janrlardagi parchalarda tong – sahar motivining alohida, mustaqil ravishda amal qilganini kuzatdik. Bu holat, nazarimizda ushbu motiv taraqqiyotining nisbatan keyingi davrlari bilan aloqadordir. Umuman, ushbu motiv asosidagi kuzatishlarimizni shunday umumlashtirish imkoniga egamiz:

1. Tong-sahar motivi mifologik qarashlar zaminida paydo bo'lib, uzoq rivojlanish va takomil yo'lini bosib o'tgan.

2. Uning deyarli barcha turkiy xalqlar folklorlarida, buning ustiga aksariyat folklor janrlarida uchrashi ushbu motivning asosi qadim folklor an'analari bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

3. Ushbu motiv nihoyatda murakkab va qadimiy tasavvur va e'tiqodlar kompleksidan differensiya yo'li bilan ajralib chiqqan. Ushbu jarayonning natijasi sifatida tong (erta, ertalab, sahar, bahor, yoz) hamda tun (oqshom, shom, kuz, qish) motivlari alohida-alohida va mustaqil taraqqiyot yo'liga kirgan.

4. Ularning keyingi taraqqiyot bosqichlarida, rivojlanish va takomil jarayonida turli transformatsiyalarga uchraganligi, o'zlarining semantik doiralarini kengaytirganligi va ko'pincha dastlabki tasavvur doirasi va ma'no ottenkalaridan uzoqlashib ketganligi ham kuzatiladi.

5. “Qudatg‘u bilig” yozma adabiyot namunasi bo‘lishiga qaramay, o‘zida folklor an‘analarining nisbatan qadimiy shakllarini saqlaganligi uchun ham ushbu motiv unda o‘zining sinkretik holati bilan namoyon bo‘ladi.

6. Asardagi ushbu motivning funktsiya va semantikasi uning qadimiy shakllari (xususan, miflarda saqlanib qolgan shakllari) funktsiya va semantikasiga to‘la mos keladi. Uni konkret tarzda “ezgu boshlanma» deyish mumkin. Bu boshlanma faqat muayyan voqea-hodasalarning boshlanishi (O‘gdulmishning O‘zg‘urmish tomon jo‘nashi)nigina emas, ramziy tarzda O‘gdulmish va Kuntug‘dilarning keyingi taqdirleri bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Zero, O‘gdulmishning har gal sahar yo‘lga chiqishi faqat o‘zining ishi o‘ngidan kelishi (inson taqdiriga ta’sir etuvchi sakral fakt)gina emas, balki O‘zg‘urmishdan yordam olishning qulay fursati (homiy kuchlarning madad beruvchi vaqti) bilan ham chambarchas bog‘liqdir.

7. Bularning hammasi “Qudatg‘u bilig”dagi ushbu motivning bevosita turkiy folklorlardagi analogik motivlar bilan bir o‘zanda turishini, uning funksional va semantik xususiyatlari bevosita turkiy folklor materiallari bilan belgilanishini ochiq-oydin ko‘rsatib turadi.

3. Uchlantirish motivi.

Uchlantirish motivining folklor asarlari uchun to‘la xosligini ta’kidlash ehtiyoji yo‘q. Uch aka-uka, uch yo‘l, uch shart... kabi motivlarni eslash kifoya.

Uchlantirish motivi “Qutadg‘u bilig”da asosiy motivlardan hisoblanadi. Aytish mumkinki, asardagi oxirgi qahramon – O‘zg‘urmishning “Qutadg‘u bilig”dagi o‘rni va vazifasi bevosita shu motiv asosiga qurilgan.

Ma’lumki, O‘gdulmish O‘zg‘urmishga elig taklifini aytish va uni shaharga chorlash uchun uch marta urinib ko‘radi va oxirgi marta borganidagina maqsadiga erishadi. O‘gdulmish birinchi marta qattiq qarshilikka uchraydi. Taklif rad etiladi. Ammo ana shu taklif va uning qabul qilinmasligi ziddiyatlari asosida Yusuf Xos Hojib o‘zining eng muhim falsafiy-estetik qarashlarini bayon etadi. Bu qarashlar elig Kuntug‘dining maktubi va zohid O‘zg‘urmishning javobi shaklida beriladi.

O‘gdulmishning ikkinchi marta safari ham muvaffaqiyatsiz tugaydi. Ammo uning O‘zg‘urmish bilan suhbat-munozaralari asosida muallif – Yusuf Xos Hojib nihoyatda muhim kompozitsion-badiiy vazifalarni hal etadi. O‘zg‘urmishning el-yurt orasiga aralashishning

tartib-nizomi qanday bo'ladi? degan savoliga javob bahonasida jamiyatdagi turli ijtimoiy tabaqa va guruhlariga xarakteristika berib chiqadi, ijtimoiy hamda shaxsiy turmush etiketlarini sanab ko'rsatadi. Nihoyat, uchinchi urinish O'gdulmishga muvafaqqiyat keltiradi. O'zg'urmish shaharga borishga, o'zining dono maslahatlari bilan O'gdulmish va eligga – Kuntug'diga yordam berishga rozi bo'ladi. U shaharga kelib ikki donishmandga insoniylikdan, chin odamgarchilikdan hayotiy saboqlar beradi.

Ko'rinib turibdiki, uchlantirish motivi shaklan folklordagi shu motivdan farq qilmaydi, unga to'la muvofiq keladi. Bu muvofiqlik zahirida ehtimol, uch raqamiga bo'lgan sakral-ramziy munosabat ham yotar. Zero, asarda "3" soniga nisbatan alohida, muqaddas qarashning ochiq izlari boshqa o'rinlarda ham ko'zga tashlanadi. Shunga ko'ra, birovning yaxshiligini birga uch qilib qaytarish lozim (1843). Hatto kishiga naf bermaydigan xususiyatlar chegarasi (1639-bayt), ko'pchilikni o'ziga bo'ysundirishning yo'l-yo'rig'i (2034), yaxshi fazilatlar ro'yxati (2369), kishining halokatiga sabab bo'ladigan kishilar miqdori (2663)... ham uchta. Faqat jamiyatdagina emas, tabiatda ham uch soni hokim:

üçi yazkı yulduz üçi yaykı bil
üçi küzki yulduz üçi kıışkı bil
üçi ot üçi suŵ üçi boldı yil
üçi boldı topraķ ajun boldı il [142 – 143].

Agar shu qarashlar mantig'idan kelib chiqiladigan bo'lsa, Kuntug'di o'tirgan taxtning ramziy ma'nolari sal anglanganday bo'ladi. Axir, u o'tirgan taxtning oyog'i ham uchta-da! Ammo o'sha o'rinda "3"ga Yusuf Xos Hojib shunday izoh beradi:

ķamuğ üç ađaklığ emitmez bolur
üçegü turur tüz ķamıt maz bolur [802].

Barcha uch oyoqli narsa siljimas bo'ladi,
Har uchala (poyalari) barobar, qimirlamaydigan bo'ladi.

Xullas, "3" raqamidan folklor asoslarini izlash va dalillash ehtiyoji yo'q. Faqat Yusuf Xos Hojibning ana shu folklor an'analariga tayanib turib, ramziy obrazlar mohiyatini ochishda unumli foydalanganini ta'kidlash kerak.

Nazarimizda, taxtning uch oyoqli bo'lishi ramzi ostida bir qator xalqona tasavvur va e'tiqodlar yotadi.

1. Taxt yer yuzasidagi tog’ bilan tenglashtiriladi. Tog’ esa dunyo yaxlitligini tasavvur qilishning o’ziga xos shakllaridan biridir. U olam daraxti (mirovoe derevo) ramziga tenglashadi. Fikrimizni yana bir jihatdan asoslashga harakat qilaylik.

Ma’lumki, dunyo daraxti olamning modelini ifodalaydi. Bu modelni dunyo xalqlari turlicha tasavvur etadi. Jumladan, shomonlikning ham o’z qarashlari mavjud. Unga ko’ra olam uch yarusdan iborat. Bular: osmon, yer yuzasi va yer ostidir. “Qutadg’u bilig”dagi taxtning bunday qarash bilan aloqalantirishning yana bir sababi bor. Ko’rinadiki, Kuntug’di (uning ayni paytda Quyosh ekanligini ham unutmaylik) taxtda o’tirganida, uning qo’lida xanjar bor edi. Shomonlikning tashqi atributlaridan biri ham xanjar bilan bog’lanadi. Zero, dastlab “bicheg” deb yuritilgan xanjar, Kuntug’di tilidan bogde deb yuritiladi. Agar shomonlarning pichog’i ham bo’gdal deb yuritilishini nazarda tutsak, taxminlarimizning faqat bir belgiga tayanmayotganligi ochiq ko’rinadi. Buning ustiga ana shu bo’gdalning uch qirrali ekanligi ham bejiz emas [Михайлов 1987, 184]. “Shomoniylarning tasavvuricha, - deb yozadi Т.М.Михайлов, - bo’gdaosmondantushgan, shuninguchunsehrli, ilohiyxususiyatlarga ega bo’lgan o’qdir” [Михайлов 1987, 37]. O’q esa “ханjar, nayza, qilich singari qurollar bilan bir xil semantikaga egadir” [Никитина 1982, 71]. Yosh shomonlarga hokimiyat va hurmat belgisi sifatida xanjar tortiq qilinishi ham mumkin [Михайлов 1987, 111].

2. Kuntug’di asardagi podsho, uning ramziy ma’nosi esa Adolatdir. Asardagi asosiy qahramonlar Kuntug’didan tashqari uchtaadir. Bular Oyto’ldi, O’gdulmish va O’zg’urmishdir. Agar ularning muvofiq ravishda Davlat, Aql va Ofiyat (Qanoat) ekanligini e’tiborga olsak, kursi-taxtning ustidagi Adolat nima (kim)larga tayanib turganligi ma’lum bo’ladi.

Masalaning boshqa tomoni ham bor. Kuntug’di – elig, ya’ni mamlakatning oliy hukmdori. Hukmdor kimga tayanishi mumkin: vazir va saroy a’yonlariga. Bu vazifani esa vazir Oyto’ldi, uning o’g’li O’gdulmish hamda ularning qarindoshi O’zg’urmishlar ado etadi. “Qutadg’u bilig”da “3” raqamining xalq ramzlari estetikasi bilan muvofiqligi shubha uyg’otmaydi. Ammo bu muvofiqlik faqat uch raqamida deb ham o’ylamaslik kerak. Ramzlarga nisbatan folklor va miflardagi sakral munosabat “Qutadg’u bilig”da o’ziga xos tarzda saqlanib qolgan. Insoniy xislatlarni ikkiga ajratish, kishi mijozining to’rt turi, inson tana a’zolari va osmon jismlarini yettiga ajratish va hokazolar shular jumlasidan.

Folklor asarlaridagi uchlantirish motivi, ko’pincha yo’l

davomidagi uch to'siqni yengish, muayyan joy bilan bog'liq holda uch shartni bajarish singari holatlar bilan bog'liq. "Qutadg'u bilig"da esa ana shu motiv tufayli Yusuf Xos Hojib o'zining axloqiy-ta'limiy hamda falsafiy-estetik qarashlari bayoniga keng maydon topadi. Turli mavzularni bir mantiqiy ip shodasiga chizish ana shu motiv tufayligina mumkin bo'ladi. Bulardan ko'rinadiki, "Qutadg'u bilig"dagi folklor motivlari har doim asar badiiy matosida nihoyatda muhim kompozitsion o'rin tutadi va katta ma'no tashiydi. Umuman, asarning shakliy sujet qurilishi ayni turkiy xalqlarning mifo-poetik ijodi bilan chambarchas bog'liq holda yuzaga kelgan.

Asardagi folklor motivlarini egallagan mavqeyiga ko'ra ikki guruhga ajratish mumkin. Ulardan bir qismi bevosita og'zaki ijod namunalari saqlab kelgan an'analarga muvofiq bo'lsa-da, "Qutadg'u bilig"da ayni folklordagi vazifalarni ado etmasdan ("qahramonning favqulodda xususiyatlari, farzandsizlik motivlari), asardan tabiiy ("ongsiz") o'zlashma sifatida namoyon bo'ladi va kuchli kompozitsion-semantik ma'no tashimaydi.

Ikkinchi turkumga asarning badiiy qurilishida mustaqil, alohida va muhim o'rin tutuvchi folklor motivlarini kiritish mumkin. Bu turkumga sinov tong-sahar, tush, uchlantirish motivlari mansub.

Ushbu motivlarning ayrimlari bevosita asardagi sujet rivojini ta'minlashga bo'ysundirilgan bo'lsa, ayrimlari boshqa kompozitsion-semantik vazifalar ijrosiga yo'naltirilgan. Ular asardagi sabab-oqibat munosabatlarining reallashuviga ham xizmat qiladi.

Xulosa

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari nihoyatda sodda sujet tuzilishiga ega. Ammo ana shu sodda sujet tuzilishi ham to'la to'kis turkiy folklor zaminiga tayanadi va undan o'sib chiqqan. Asardagi folklor motivlari to'lig'icha ushbu fikrni tasdiqlaydi. Umuman, asarda turkiy folklordagi (xususan, eposlardagi) motivlarga kuchli hamohanglik juda erkin tarzda namoyon bo'lgan. Ammo ana shu namoyon bo'lish shakllarining nihoyatda xilma-xildir.

Ayrim motivlar "Qutadg'u bilig" tarkibida og'zaki ijodga xos bo'lgan an'analarning oddiy ("ongsiz") inersiya sifatida yuzaga kelgan bo'lsa (g'ayritabiiy xislatlar, farzandsizlik), ba'zi bir motivlar asardagi asosiy kompozitsion elementlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. bunga sinov, tong sahar, tush, uchlantirish motivlarini kiritish mumkin. Bular asarda alohida, muhim o'rin tutadi hamda voqea-hodisalarning boshi, rivojlanishiga (tong sahar, tush, uchlantirish motivlari) yoki qahramon xarakteridagi muayyan jihatlari (sinov,

tush motivlari) ochishga xizmat qiladi.

“Qutadg‘u bilig”dagi qahramonni sinash motivini kuzatib, uning folklor janrlaridagi ayni motivning analogi sifatida yuzaga kelganini qayd etish mumkin. Faqat folklordagi ham jismoniy, ham ma’naviy xususiyatlarni sinash asosida yuzaga kelgan bu motiv Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida faqat axloqiy-ma’naviy xususiyatlar sinoviga bo‘ysundirilgan. Zero, bu asarning bevosita mazmun mohiyati bilan ham, uning maqsad va vazifalari bilan ham chambarchas bog‘liq holda yuzaga chiqadi.

Tong sahar motivi ham “Qutadg‘u bilig” kompazitsiyasi uchun xosdir. Bu motiv o‘zbek folklorining barcha janrlariga mansub. U turkiy xalqlarning deyarli barchasida uchraydi. Bu ikki holat ushbu motivning nisbatan qadimiy shakllanish davriga ishora qiladi. Shakl va funksiya jihatidan bahor (yoz) ham tong motivining aynidir. Ularning ziddi sifatida oqshom (kechasi, tun), ku (qish) motivlari yuzaga kelgan. Ushbu motiv bevosita inson taqdiri bilan aloqalantiriladi. Tong motivi folklorda:

a) Voqea-hodisa sodir bo‘lgan muayyan bir (yoki aniq) vaqtni qayd etish;

b) Voqea-hodisalarning borishiga ilohiy ta’sir ko’rsatish muddatini belgilaydi;

c) Homiy kuchlarning madad beruvchi payti deb baholaydi; Inson taqdiriga ta’sir etuvchi holat sifatida baholanadi. “Qutadg‘u bilig”da esa bularning hammasi yaxlitlangan tarzda namoyon bo‘ladi.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida namoyon bo‘ladigan so‘z va so‘zga, xususan, badiiy so‘zga munosabatda ham folklor an’analarining izchil davomi va taraqqiyoti ko‘zga tashlanadi. Umuman, “Qutadg‘u bilig”ning turkiy xalqlar folklori bilan uzviy aloqadorligi, bog‘liqligini ko’rsatish bilan bu turkiy yozma adabiyotning shoh asari xalq hayoti bilan naqadar chambarchas bog‘liq ekanligini aniqlaymiz. Bu bog‘liqlik “Qutadg‘u bilig”ning abadiyatini ta’minlagan.

Adabiyotlar

Алпомиш. 1979. Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи М. Зарипов, биринчи нашрга тайёрловчи Ҳ. Олимжон, қайта тайёрловчилар Ҳ. Зариф ва Т. Мирзаев. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.

Базен, Л. 1986. “Человек и понятие истории у тюрков Центральной Азии в VIII в”. *Зарубежная тюркология, вып. 1. Древние тюркские*

- языки и литературы. Ответственный редактор академик А.Н. Кононов, с. 345-360. Москва: Наука.
- Бектемир ботир. 1986. *Ўзбек халқ эртаклари*, нашрга тайёрловчилар М.Афзалов, К.Имомов, 100 – 111. Тошкент: Ёш гвардия.
- Бомбачи, А. 1986. “Тюркские литературы. Введение в историю и стиль”. *Зарубежная тюркология, вып. 1. Древние тюркские языки и литературы*. Ответственный редактор академик А.Н. Кононов, с. 191-293. Москва: Наука.
- Далгат, У.Б. 1981. *Литература и фольклор. Теоретические аспекты*. Москва: Наука.
- Фарҳод ва Ширин. Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи Б.Каримов. Нашрга тайёрловчи М.Афзалов. – Баҳром ва Гуландом.
- Габен, А. 1986. “Культура письма и печатания у древних тюрков”. *Зарубежная тюркология, вып. 1. Древние тюркские языки и литературы*. Ответственный редактор академик А.Н. Кононов, с. 159-190. Москва: Наука.
- Горький, А.М. 1960. *Адабиёт ҳақида*. Тошкент: Ўздавнашр.
- Ҳожиб, Юсуф Хос. 1971. *Қутадғу билиг*. Нашрга тайёрловчи ва таржимон Қ. Каримов. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашрети.
- Ҳасиб, Юсуф Ҳаш. 1991. *Kutadgu bilig*. Metin, Reşid Rahmeti Arat. Istanbul: Türk Dil Kurumu Yayınları.
- Жирмунский, В.М., Зарифов, Х.Т. 1947. *Узбекский народный героический эпос*. Москва: ОГИЗ.
- Жирмунский, В.М. 1974. *Тюркский героический эпос*. Ленинград: Наука.
- Кошғарий, Маҳмуд. 1963. *Девону луғоит турк*. Уч томлик, 3-том. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталлибов. Тошкент: ЎзФан.
- Криничная, Н.А. 1977. *Русская народная историческая проза. Вопрос генезиса и структур*. Москва: Наука.
- Михайлов, Т.М. 1987. *Бурятский шаманизм: история, структура и социальные функции*. Новосибирск: Наука.
- Никитина, М.И. 1982. *Древняя корейская поэзия в связи с ритуалом и мифом*. Москва: Наука.
- Пропп, Б.Я. 1969. *Морфология сказки*. Издание 2-е. Москва: Наука.
- Раззаков, Х., Мирзаев, Т., Собиров, О., Имомов, К. 1980. *Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Стеблева, И. В. 1976. *Поэтика древнетюркской литературы и ее трансформация в раннеклассический период*. Москва: Наука.
- Васеловский, А.Н. 1940. *Историческая поэма*. Москва: Художественная литература.
- Зариф, Ходи. 1971. “Кунтуғмиш” достони ҳақида”. *Эргаш шоир ва унинг дostonчиликдаги ўрни*. Тадқиқотлар. 2-китоб. Тошкент: Фан.
- Чистов, К.В. 2005. “Фольклор. Текст. Традиция”. Москва: ОГИ.

Bokijon Tukhliev

(Tashkent, Uzbekistan)
bokijontukhliev@inbox.ru

Motives of Turkic Folklore in "Kutadgu Bilig"

Abstract

"Kutadgu bilig" is one of the most ancient monuments of Turkic written literature. However, talking about its importance only for the interests of the Turkic peoples would be one-sided. Such works belong to all mankind. So such works' importance is universal.

In 11th century, Turkic literature, including "Kutadgu bilig", emerged in extremely complex historical, economic, political and cultural conditions. During this period, the ancient beliefs of the Turkic peoples, as well as the traditions of the ancient Turkic script, as well as the Islamic culture, which came under the influence of Persian-Tajik literature, intersected, and the traditions of folklore's reputation was also strong. Therefore, in the work there are sometimes strong and sometimes imperceptible traces of several different traditions. In "Kutadgu bilig" the most important features of a great literature, folklore, which has centuries-old traditions, are reflected as a whole. Naturally, such a situation cannot be a coincidence. Indeed, many writers who lived and worked before Yusuf Has Hajib must have produced many of the works they created. The importance of the same points motivates us to do this.

Key words: *Kutadgu bilig, Yusuf Has Hajib, folklore, motive, tradition, Turkic literature, influence.*

About the authors: *Boqijon To'xliyev* – Doctor of Sciences in Philology, professor of Tashkent State University of Oriental Studies.

Recommended citation: Tukhliev, Bokijon. 2020. "Motives of Turkic folklore in "Kutadgu bilig". *Golden Scripts* 3: 3—26.

References

Alpomish. 1979. Aytuvchi Fozil Yo'ldosh o'g'li, yozib oluvchi M. Zaripov, birinchi nashrga tayyorlovchi H. Olimjon, qayta tayyorlovchilar H. Zarif va T. Mirzaev. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va

san'at nashriyoti.

- Bazen, L. 1986. "Chelovek i ponyatie istorii u tyurkov sentralnoy Azii v VIII v". *Zarubejnaya tyurkologiya, vip. 1. Drevnie tyurkskie yaziki i litervturi*. Otvetstvenniy redaktor akademik A.N. Kononov, s. 345-360. Moskva: Nauka.
- Bektemir botir. 1986. *O'zbek xalq ertaklari*, nashrga tayyorlovchilar M.Afzalov, K.Imomov, 100 – 111. Toshkent: Yosh gvardiya.
- Bombachi, A. 1986. "Tyurkiskie literaturi. Vvedenie v istoriyu i stil". *Zarubejnaya tyurkologiya, vip. 1. Drevnie tyurkskie yaziki i litervturi*. Otvetstvenniy redaktor akademik A.N. Kononov, s. 191-293. Moskva: Nauka.
- Dalgat, U.B. 1981. *Literatura i folklor. Teoritecheskie aspekti*. Moskva: Nauka.
- Farhod va Shirin. Aytuvchi Fozil Yo'ldosh o'g'li, yozib oluvchi B.Karimov. Nashrga tayyorlovchi M.Afzalov. – Bahrom va Gulandom.
- Gaben, A. 1986. "Kultura pisma i pechataniya u drevnix tyurkov". *Zarubejnaya tyurkologiya, vip. 1. Drevnie tyurkskie yaziki i litervturi*. Otvetstvenniy redaktor akademik A.N. Kononov, s. 159-190. Moskva: Nauka.
- Gorkiy, A.M. 1960. *Adabiyot haqida*. Toshkent: O'zdamnashr.
- Hojib, Yusuf Xos. 1971. *Qutadg'u bilig*. Nashrga tayyorlovchi va tarjimon Q. Karimov. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashryoti.
- Hacib, Yusuf Has. 1991. *Kutadgu bilig*. Metin, Resid Rahmeti Arat. Istanbul: Türk Dil Kurumu Yayinlari.
- Jirmunskiy, V.M., Zarifov, X.T. 1947. *Uzbekskiy narodniy geroicheskiy epos*. Moskva: OGIZ.
- Jirmunskiy, V.M. 1974. *Tyurkiski geroicheskiy epos*. Leningrad: Nauka.
- Koshg'ariy, Mahmud. 1963. *Devonu lug'oit turk*. Uch tomlik, 3-tom. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M. Mutallibov. Toshkent: O'zFan.
- Krinichnaya, N.A. 1977. *Russkaya narodnaya istoricheskaya proza. Vopros genezisa i struktur*. Moskva: Nauka.
- Mixaylov, T.M. 1987. *Buryatskiy shamanizm: istoriya, struktura i sotsialnie funksii*. Novosibirsk: Nauka.
- Nikitina, M.I. 1982. *Drevnyaya koreyskaya poeziya v svyazi s ritualom i mifom*. Moskva: Nauka.
- Propp, B.Ya. 1969. *Morfologiya skazki*. Izdanie 2-ye. Moskva: Nauka.
- Razzakov, X., Mirzaev, T., Sobirov, O., Imomov, K. 1980. *O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi*. Toshkent: O'qituvchi.
- Stebleva, I. V. 1976. *Poetika drevnetyurkskoy literaturi i yee transformatsiya v ranneklassicheskiy period*. Moskva: Hauka.
- Vaselovskiy, A.N. 1940. *Istoricheskaya poeta*. Moskva: Xudojestvennaya literatura.
- Zarif, Xodi. 1971. "Kuntug'mish" dostoni haqida". *Ergash shoir va uning dostonchilikdagi o'rni*. Tadqiqotlar. 2-kitob. Toshkent: Fan.
- Chistov, K.V. 2005. "Folklor. Tekst. Traditsiya". Moskva: OGI.